

KO'RISH ANALIZATORI BUZILISHLARINING BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Madraimova Gulshoda Xayrulla qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Logopediya ixtisosligi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ko'ruv analizatori va uning bolaning bilish jarayonlari rivojlanishidagi o'rni har tomonlama yoritilgan. Ko'rish orqali inson atrof-muhitni idrok etishi, predmetlarning xususiyatlarini anglash va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni tushunishi mumkinligi asoslab beriladi. Ayniqsa, bolalik davrida ko'ruv analizatori sezgi, idrok, xotira, tafakkur va nutq kabi muhim psixik jarayonlarning shakllanishida yetakchi omil sifatida namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada ko'rishdagi nuqsonlarning bola rivojlanishiga salbiy ta'siri, jumladan bilish faoliyatining sekinlashuvi, fazoviy mo'ljal olishdagi qiyinchiliklar va ijtimoiylashuv jarayonidagi muammolar tahlil qilinadi. Vizual tafakkurning ahamiyati, uning ta'lim jarayonidagi o'rni hamda ko'rgazmali vositalar orqali bilimlarni samarali o'zlashtirish imkoniyatlari yoritilgan. Muallif ko'ruv analizatoridagi buzilishlarni kompensatsiya qilishda maxsus pedagogik yondashuv va korreksion ishlarning muhimligini alohida qayd etadi.*

Kirish so'zlar: *Ko'ruv analizatori, bilish jarayonlari, vizual tafakkur, idrok, xotira, tafakkur, ko'rish nuqsonlari, psixik rivojlanish, kompensatsiya, korreksion pedagogika, tiflopedagogika, fazoviy idrok, ta'lim jarayoni, vizual o'rganish, bolalar rivojlanishi.*

Ko'rish bolaning hayotiy faoliyatida va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ko'rish analizatori yordamida dunyoni idrok etish bolaning ruhiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Tevarak-atrof haqidagi eng kuchli taassurotlar ko'z bilan idrok etiladi. Bola ko'rish qobiliyati orqali narsalarning rangi, shakli, hajmi, harakati, uzoq-yaqinligi, fazodagi o'rni haqida tasavvurga ega bo'ladi. Ma'lumki, ko'rish analizatori nurlarni qabul qiluvchi qism ko'z olmasi va uning yordamchi apparatidan ko'zga tushgan tasvirni avval po'stloq osti markazlariga, keyin esa oliy ko'ruv markazlari joylashgan katta miya po'stlog'iga- ensa bo'laklariga yetkazib beradigan o'tkazuvchi yo'llardan tashkil topgan. Ana shu analizatorning har qanday qismlaridagi o'zgarishlar bolaning ko'rish qobiliyatiga albatta ta'sir ko'rsatadi. Ko'rishdagi nuqsonlar bolaning ruhiy, jismoniy rivojlanishida ikkilamchi nuqsonlar kelib chiqishiga olib keladi

Inson oladigan axborotning taxminan 80 foizi ko'rish orqali qabul qilinadi, shu sababli ko'rish tashqi olamni idrok etish va ma'lumot olishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ko'rish yordamida inson va hayvonlar tashqi muhitdagi predmetlarning hajmi, yorug'ligi, rangi, harakati va holatini qabul qiladi hamda organizm hayoti uchun muhim bo'lgan turli ma'lumotlarga ega bo'ladi. Shu bilan birga, ko'rish boshqa sezgi organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va birlashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, inson eng ko'p tasavvurlarni aynan ko'rish orqali hosil qiladi hamda turli sezgi organlari orqali olingan parokanda axborotlarni bir butun tizimga keltirib, ularni qayta ishlaydi va anglaydi.

Ko‘rish nafaqat axborotni qabul qilish vositasi, balki murakkab bilish faoliyatining asosi hamdir. Insonning atrof-muhitni yaxlit idrok etishi, fazoda mo‘ljal olishi, predmet va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tushunishi ko‘p jihatdan ko‘ruv faoliyati bilan bog‘liq. Aynan shu jihati bilan ko‘ruv analizatori boshqa sezgi tizimlari bilan uzviy aloqada bo‘lib, bilish jarayonlarining shakllanishida yetakchi o‘rin tutadi.

Ko‘ruv analizatorining asosiy vazifasi faqat predmetlarni ko‘rish emas, balki ularning shakli, hajmi, rangi, joylashuvi, harakati va o‘zaro munosabatlarini idrok qilishdan iborat. Bu jarayon orqali inson borliqni anglaydi, voqelikni tahlil qiladi va unda yo‘nalish oladi. Aynan shu sababli ko‘rish analizatori bilish jarayonlarining shakllanishida markaziy o‘rin egallaydi. Bolaning psixik rivojlanishida ko‘ruv analizatori alohida ahamiyatga ega. Erta yoshdan boshlab bola atrof-muhitni ko‘rish orqali o‘rganadi, predmetlarni tanib boradi, ularning belgilarini farqlaydi, hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tushunishni boshlaydi. Dastlabki tasavvurlar, obrazli fikrlash, taqlid qilish, nutqning shakllanishi ham ko‘p jihatdan ko‘rish faoliyati bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Bola kattalar harakatlarini ko‘rib taqlid qiladi, predmetlar bilan muomala jarayonida tajriba orttiradi va bu uning intellektual rivojlanishiga zamin yaratadi.

Ko‘ruv analizatori sezgi va idrok jarayonlarining rivojlanishida yetakchi rol o‘ynaydi. Idrok predmet va hodisalarning yaxlit obrazini shakllantirish jarayoni bo‘lsa, bu jarayon ko‘pincha ko‘ruv orqali amalga oshadi. Ko‘rish yordamida bola rang, shakl, masofa, o‘lcham, fazoviy joylashuv kabi muhim belgilarni ajratadi. Bu esa keyinchalik tafakkur operatsiyalari — tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarishning rivojlanishiga asos bo‘ladi.

Vizual tafakkur — bu shunday metodologiyaki, unda biz murakkab va qiyin tushunchalarni tahlil qilish hamda tushuntirish uchun vizual elementlar va vositalardan foydalanamiz. Shu sababli vizual tafakkurni qachon qo‘llashni belgilashda uning ko‘plab afzalliklarini bilish muhimdir.

Vizual tafakkur — bu bilishning ko‘rish orqali amalga oshadigan o‘rganish usuli hisoblanadi. Uni obrazlar orqali ma‘no va mazmun topish jarayoni deb ham aytish mumkin. Ko‘pchilik vizual o‘rganuvchilar bo‘lib, ular uchun tasvirlar og‘zaki yoki yozma ma‘lumotlarga qaraganda kuchliroq va esda qolarliroq ta‘lim tajribasini beradi.

Vizual tafakkur o‘quvchiga o‘z ichki fikrlash jarayonini ifodalash, uni yanada aniq va amaliy qilish, o‘z g‘oyalarini shakllantirish, tanqidiy fikrlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Vizual tafakkurning eng muhim afzalliklari:

Axborotni turlicha yetkazish imkonini beradi. Alohida ishlatilgan tasvirlar ba‘zan chalkashlik tug‘dirishi mumkin. Kontekstdan uzilgan holatda ular noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin. Xuddi shuningdek, alohida ishlatilgan so‘zlar ham shunday. Ammo maqsadli ravishda birlashtirilgan vizual elementlar ba‘zan so‘zlardan ham kuchliroq hissiy va kommunikativ ta‘sir ko‘rsatadi. Tasvirlar yordamida so‘z bilan ifodalash qiyin bo‘lgan his-tuyg‘ular, tavsiflar va jarayonlarni ifodalash mumkin.

Shu bois vizual tafakkur g‘oyalarni boshqa usullar bilan yetkazish qiyin bo‘lgan darajada ifodalashga yordam beradi. Ko‘rgazmali vositalardan foydalanish axborotni o‘ziga xos va samarali yetkazish imkonini yaratadi.

O‘z-o‘zini tahlil qilishga imkon beradi. Vizual tafakkur insonni chuqurroq mulohaza qilishga undaydi. Fikrlarni faqat ongda saqlash qarashlarni cheklab qo‘yishi mumkin. Ularni qog‘ozga yoki vizual shaklga tushirgandagina bog‘lanishlar, muqobil yechimlar va munosabatlar aniq ko‘rina boshlaydi. Bu muammoni hal qilishning ilgari sezilmagan usullarini topishga yordam beradi.

Aniqlikni oshiradi. Inson miyasi vizual axborotni tezroq tushunadi va yaxshiroq eslab qoladi. Shu sababli vizual tafakkur ma’lumotni yanada aniq va tushunarli qiladi. Axborotni ko‘rgazmali tarzda ifodalash uni tezroq anglash va mustahkamroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Ijodkorlikni rivojlantiradi. Vizual tafakkur ayniqsa murakkab muammolarga innovatsion yechim topishda muhim ahamiyatga ega. Diagrammalar, aqliy xaritalar, eskizlar va infografikalar yangi va ijodiy yechimlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu jihatdan vizual tafakkur ijodiy salohiyatni ochib beruvchi samarali vosita hisoblanadi.

Muammoni aniq belgilashga yordam beradi. Murakkab muammolarni hal qilish uchun ularni aniq ifodalash zarur. Vizual vositalar muammoning mohiyatini ochib berish, mavjud taxminlarni qayta ko‘rib chiqish va qo‘shimcha ma’lumot talab qilinadigan jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Shu tariqa vizual tafakkur muammoni to‘g‘ri belgilash va samarali yechim topishga xizmat qiladi.

Kelajakni tasavvur qilishga yordam beradi. Bugungi murakkab va o‘zgaruvchan dunyoda kelajak rejalari yoki strategiyalarni faqat so‘z bilan ifodalash qiyin. Vizual tafakkur esa ularni obrazli tarzda ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa loyihalash, strategik rejalashtirish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqishda bu juda muhimdir.

Ko‘ruv analizatorining ahamiyati diqqat rivojlanishida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Ko‘rish orqali bola diqqatni muayyan obyektga jamlash, uni uzoq saqlash va zarur paytda boshqa obyektga ko‘chirishni o‘rganadi. Vizual diqqatning shakllanishi o‘quv faoliyatining samaradorligi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim davrida ko‘ruv orqali qabul qilingan axborot o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xotira rivojlanishida ham ko‘ruv analizatori katta o‘rin tutadi. Ko‘ruv xotirasi yordamida inson predmetlar, tasvirlar, belgilar va voqealarni eslab qoladi hamda qayta tiklaydi. Ayniqsa, bolalarda obrazli xotiraning shakllanishida ko‘ruv yetakchi omil hisoblanadi. Harflarni tanish, yozuvni o‘rganish, rasmlar bilan ishlash, sxema va modellarni tushunish ko‘ruv xotirasi bilan chambarchas bog‘liq.

Ko‘ruv analizatori tafakkur rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Chunki tafakkur ko‘pincha sezgi va idrokka tayangan holda shakllanadi. Predmetlar haqidagi tasavvurlar, ular orasidagi bog‘lanishlarni anglash, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish ko‘ruv orqali olingan ma’lumotlar asosida rivojlanadi. Shu bois ko‘ruv analizatori nafaqat sezgi organi, balki bilish faoliyatining muhim tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. Ko‘rishning inson ijtimoiy rivojlanishidagi roli ham katta. Muloqot jarayonida yuz ifodalari, imo-ishoralar, tana harakatlarini tushunish, atrofdagilar bilan munosabatga kirishish ko‘p jihatdan ko‘ruvga bog‘liq. Bola atrofdagilar xatti-harakatlarini kuzatish orqali ijtimoiy tajriba egallaydi, xulq-

atvor me'yorlarini o'zlashtiradi va shaxs sifatida shakllanadi. Demak, ko'ruv analizatori faqat bilish emas, balki ijtimoiylashuv jarayonida ham muhim vositadir.

Ta'lim jarayonida ko'ruv analizatorining ahamiyati yanada ortadi. Chunki maktab ta'limining katta qismi vizual qabul qilishga asoslanadi: matnni o'qish, yozuv, grafiklar, jadvallar, rasmlar, tajribalarni kuzatish va boshqa ko'plab faoliyatlar ko'rish bilan bog'liq. Shu sababli ko'ruv faoliyati o'quv faoliyati muvaffaqiyatining muhim sharti hisoblanadi.

Ko'ruv analizatori faoliyatidagi har qanday buzilish bolaning rivojlanishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ko'rishning cheklanishi atrof-muhit haqidagi tasavvurlarning torayishiga, bilish faoliyati sur'atining pasayishiga, fazoviy mo'ljal olishdagi qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Biroq maxsus pedagogik yondashuv va kompensator imkoniyatlardan foydalanish orqali bu qiyinchiliklarni ma'lum darajada bartaraf etish mumkin.

Shunday qilib, ko'ruv analizatori inson rivojlanishida ko'p qirrali ahamiyatga ega bo'lgan murakkab funksional tizimdir. U bilish jarayonlari, psixik taraqqiyot, o'quv faoliyati va ijtimoiy rivojlanishning muhim asosi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois ko'ruv analizatorining tuzilishi, funksiyasi va rivojlanishdagi rolini o'rganish maxsus pedagogika hamda tiflopedagogikaning muhim nazariy masalalaridan biri hisoblanadi.

Rivojlanish jarayonidagi ko'rishdagi chuqur nuqsonlar bilish faoliyatining barcha turlariga ta'sir etadi hamda bolani shaxsiy va emotsional-irodaviy doirasini shakllanishida kuzatiladi. Ko'rishni keskin buzilishi olinayotgan ma'lumotni umumiy xajmini pasaytiradi hamda sifatini o'zgartiradi. Ko'rish hislarining qisman kamayishi yoki to'liq bo'lmasligi idrok, xotira, shuningdek psixologik tuzim. uning strukturasi, ichki funktsiya tizimlarining o'zaro bog'liq to-monlarini, tasavvur obrazlarining shakllanishini hissiy bilish jarayonlarini chegaralab qo'yadi. Obrazlarni shakllanishida o'ziga xoslik yuzaga kelishi, tushunish, nutq, aqliy qobiliyat orqali tushunib obrazlarni o'zaro bog'lay olish, fazoda mo'ljal ola olish va x.k.lar analizatorlarning o'zaro sifatli tizimida o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Jismoniy rivojlanishida ham etarlicha o'zgarishlar kuzatiladi harakatlarining aniqligi, intensivligi buziladi, yurish ko'nikmalari va boshqa harakat aktlari o'ziga xos bo'lib qoladi. Sekin asta bolada o'ziga xos, o'zining psixologik tizimi shakllanadi, bu me'yorida rivojlanuvchi bolaning rivojlanishini biron-bir tizimi bilan sifat va tuzilishi jihatdan o'xshamaydi, u o'z ichiga rivojlanishning turli darajalarini birlamchi nuqsonga ta'siri, shuningdek rivojlanishning yangi kompensator yo'llarining yaratishga asoslangan. Bu ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda funksiyalararo bog'liqlikni ham o'ziga xos amalga oshirilishini ko'rsatadi. Shuning uchun ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik tizimini rivojlanishi hamda shakllanishi u bilan ilk bolalik davridanoq kompensator jarayonlarini shakllantirish hamda korreksion ishni bog'liq ravishda olib borishga bog'liq bo'ladi. Birlamchi nuqsonlarni tibbiy-pedagogik va psixologik vositalar bilan korreksiyalash kompensatsiya imkoniyatlarini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xamidova, M. U. (2018). Maxsus pedagogika. Toshkent
2. Po‘latova, P. M., Nurmuxamedova, L. Sh., Yakubjonova, D. B. Mamarajabova, Z. N., Amirsaiidova, Sh. M., Sultonova, A. D. (2014). Maxsus pedagogika. Toshkent: “Fan va texnologiyalar”
3. .Rahmonova, V. S. (2014). Defektologiya asoslari. Toshkent: “Niso Poligraf”
4. Nurkeldiyeva, D. A. (2019). Pedagogik-psixologik diagnostika. Toshkent